



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti



№1(2)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 116 sahifa,
20-yanvar, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapirjanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalar tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari nomzodi (PhD)
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the Editorial Board of the newspapers "Yangi Uzbekiston" and "Pravda Vostoka", Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Candidate of Philological Sciences (PhD)

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta’limi” jurnali O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo‘yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo‘yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta’limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo‘yicha
ro‘yxatdan o‘tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

Maktabga tayyorlov guruhi tarbiyalanuvchilarini maktab ta'limiga tayyorligini aniqlash	16
<i>Akramova Dildora Ergashboy qizi</i>	
Bola tarbiyasida o'yinning ahamiyati	21
<i>Choriyeva Durdona Anvarovna, O'ktamova Nasiba Ravshan qizi</i>	
O'quvchilarning loyiha-tadqiqot faoliyatini tashkil etishning ilmiy asoslari	25
<i>Sobirova Nilufar Azimboy qizi</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida pedagogik jarayonni tashkil etish	29
<i>Choriyeva Durdona Anvarovna, Ko'zibayeva Nasiba O'tkir qizi</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda sensor tarbiyani rivojlantirish texnologiyalari	32
<i>Choriyeva Durdona Anvarovna, Allaberdiyeva Mardona O'tkirbek qizi</i>	
Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarni jismoniy tarbiyalash mazmuni va vazifalari.....	37
<i>Choriyeva Durdona Anvarovna, Mirsharfova Shahinabegim Saidabbos qizi</i>	
Gandbolchi sportchilarni jismoniy tayyorgarligida harakatli o'yinlarning tarbiyaviy rivojlantiruvchi vazifalari	41
<i>Ibodullayeva Munira Atabek qizi</i>	
Boshlang'ich sinflarda dars samaradorligini oshirishda noan'anaviy usullardan foydalanish samaradorligi.....	44
<i>Yusufaliyeva Gulnora Abduraxmonovna</i>	
Modern Requirements for a Teacher's Pedagogical Skills in the Context of Digital Transformation in Education.....	49
<i>Abira Bakhramova</i>	
Ta'lim muassasalarida o'smir yoshlarning ijtimoiylashuv jarayonini samarali tashkil etishga yordam beruvchi pedagogik omillar va shart-sharoitlar	54
<i>Artikova Gulnoza Xasanovna</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida iqtisodiy tarbiya berishning nazariy-pedagogik asoslari	57
<i>Mamadaliyeva Nilufar Bahodirovna</i>	
Kognitiv lingvistika va konseptologiya masalalari	60
<i>Meyliqulova Manzura Abdullayevna</i>	
Developing Law Students' Writing Competence Through the IRAC Method in Legal English Classes: A Comprehensive Study at TSUL.....	63
<i>Noila Mustafoeva</i>	
Tarixiy obidalarining restavratsiya jarayonlarining o'rganilish tarixi	67
<i>Ochilov Davron Bahodir o'g'li</i>	
Oliy ta'limda baholash jarayonini avtomatlashtirishda sun'iy intellekt texnologiyalarining qo'llanishi.....	72
<i>Ovxunov Iqboljon Abdunabiyevich, Mamadaliyeva Kamolaxon Xayrullo qizi</i>	
Tabiiy yorug'lik va barqaror energiya manbalarini integratsiyalashgan mini home loyihasi.....	76
<i>Djuraboyev Maqsudbek Karimbek o'g'li, Qodirjonov Oyatillo Abdulboqi o'g'li</i>	
Talabalarning tarixiy tafakkurini rivojlantirishda madaniy meros vositalarining pedagogik ahamiyati.....	80
<i>Rajabova Matluba Toshkentboy qizi</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachilarining umummadaniy kompetensiyalarini rivojlantirish texnologiyalari.....	83
<i>Saidova Nigora Olimovna, Jo'rayeva Nilufar Rustamjon qizi</i>	
Raqamli kommunikatsiyalarni o'smirlar shaxsiyatining rivojlanishiga ta'siri	86
<i>Shomurotova Nigoraxon Nabijonovna</i>	
Talabalarning chizma geometriya fanini mustaqil bilish faoliyatiga oid kompetensiyalarini "Visio" dasturi vositasida rivojlantirish metodikasi	90
<i>Tashimov Nurlan Erpolatovich</i>	



Shaxslararo munosabatlar – ijtimoiy pedagogik muammo sifatida.....	94
Uralova Muxabbat Sanjar qizi	
O'zbek tili darslarida raqamli ta'lim vositalaridan foydalanish tajribasi	98
Yuldasheva Dilnoza Bekmurodovna	
Психологическая готовность разведенных людей к вступлению в новый брак и приоритеты при выборе партнера.....	101
Саидвалиева Шодия Рихсихужа кизи	
Воспитание любви к прекрасному у дошкольников в развивающей предметно-пространственной среде: теоретико-методический аспект.....	107
Терехова Ольга Евгеньевна, Темирова Барно Кёмхоновна	
Методика формирования наблюдательности у детей 6–7 лет в процессе целенаправленных прогулок-наблюдений.....	111
Терехова Ольга Евгеньевна, Шокиржонова Мохира Илхомжон кизи	

MAKTABGA TAYYORLOV GURUHI TARBIYALANUVCHILARINI MAKTAB TA'LIMIGA TAYYORLIGINI ANIQLASH

Akramova Dildora Ergashboy qizi

Nizomiy nomidagi O'zMPU

Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim fakulteti o'qituvchisi

Toshkent shahar, O'zbekiston

ORCID: 0009-0000-4699-3835

Annotatsiya: Mazkur maqola maktabga tayyorlov guruhi tarbiyalanuvchilarining maktab ta'limiga tayyorgarlik darajasini aniqlash yo'llarini yoritishga bag'ishlangan. Unda tarbiyalanuvchilarning maktab ta'limiga tayyorgarligini baholashga qaratilgan metodikalar hamda ularni amaliyotga joriy etish mexanizmlari ilmiy asosda tahlil qilingan. Tadqiqot jarayonida maktabga tayyorlov guruhi tarbiyalanuvchilarining intellektual, nutqiy, psixologik, ijtimoiy, jismoniy hamda mayda motorika rivojlanish darajalari, shuningdek, o'quv faoliyatiga tayyorgarligi kuzatuv, o'yinlar, suhbatlar va amaliy mashg'ulotlar orqali aniqlanishi tavsiya etiladi. Tadqiqot natijalari maktabga tayyorlov guruhi tarbiyalanuvchilarining maktab ta'limiga tayyorgarligini tizimli baholash ta'lim sifati va ularning o'quv faoliyatidagi faolligini sezilarli darajada oshirishini ko'rsatdi. Mazkur maqola ta'lim sohasi mutaxassislari, pedagoglar va tadqiqotchilar uchun amaliy ahamiyatga ega.

Kalit so'zlar: tarbiyalanuvchi, intellektual tayyorgarlik, nutqiy tayyorgarlik, psixologik tayyorgarlik, ijtimoiy tayyorgarlik, jismoniy va mayda motorika tayyorgarligi, o'quv faoliyatiga tayyorgarlik, kuzatuv, o'yinlar, suhbatlar, amaliy mashg'ulotlar.

Abstract: This article is devoted to the study of methods for determining the level of readiness of children in preparatory groups for school education. It analyzes methodological approaches to assessing school readiness and outlines practical ways of their implementation. The study recommends evaluating the intellectual, speech, psychological, social, physical development and fine motor skills of preparatory group children, as well as their readiness for learning activities, through observation, games, conversations, and practical exercises. The research findings demonstrate that a systematic assessment of school readiness significantly improves the quality of education and enhances children's active participation in the learning process. This article is of practical relevance for education specialists, teachers, and researchers.

Key words: child, intellectual readiness, speech readiness, psychological readiness, social readiness, physical and fine motor skills readiness, readiness for learning activities, observation, games, conversations, practical exercises.

Аннотация: Данная статья посвящена изучению способов определения уровня готовности воспитанников подготовительной группы к школьному обучению. В работе представлены методики оценки готовности детей к школе, а также механизмы их практической реализации. В ходе исследования рекомендуется определять уровень интеллектуальной, речевой, психологической, социальной, физической подготовки и развития мелкой моторики воспитанников подготовительной группы, а также их готовность к учебной деятельности посредством наблюдений, игр, бесед и практических занятий. Результаты исследования свидетельствуют о том, что систематическое определение готовности воспитанников подготовительной группы к школьному обучению способствует повышению качества образования и активному вовлечению детей в образовательный процесс. Статья имеет практическую значимость для специалистов в сфере образования, педагогов и исследователей.

Ключевые слова: воспитанник, интеллектуальная подготовка, речевая подготовка, психологическая подготовка, социальная подготовка, физическая подготовка и мелкая моторика, готовность к учебной деятельности, наблюдение, игры, беседы, практические занятия.

KIRISH

O'zbekiston Respublikasida ta'lim tizimini rivojlantirish va uzluksiz ta'limni ta'minlash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Xususan, O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni, Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida"gi Qonuni, shuningdek, maktabgacha ta'lim sohasiga oid davlat dasturlari va me'yoriy-huquqiy hujjatlarda maktabgacha yoshdagi bolalarni maktab ta'limiga har tomonlama tayyorlash muhim vazifa sifatida belgilangan.

Mazkur me'yoriy hujjatlarda maktabgacha ta'limning asosiy maqsadi bolaning jismoniy, aqliy, nutqiy, ijtimoiy va psixologik rivojlanishini ta'minlash, unda o'quv faoliyatiga ijobiy munosabatni shakllantirishdan iborat



ekanligi qayd etilgan. Ayniqsa, maktabga tayyorlov guruhi tarbiyalanuvchilarining maktab ta'limiga tayyorligini aniqlash orqali ularning individual rivojlanish darajasini baholash va maktab bosqichiga muammosiz moslashuvini ta'minlash muhim ahamiyat kasb etadi.

Me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalardan kelib chiqib, diagnostika ishlari bolalar uchun qulay, xavfsiz va o'yin faoliyatiga asoslangan muhitda olib borilishi, ularning ruhiy holatiga salbiy ta'sir ko'rsatmasligi zarur. Ushbu yondashuv orqali bolalarda maktabga nisbatan ijobiy munosabat shakllantiriladi hamda ularning kelgusidagi ta'lim faoliyatiga muvaffaqiyatli tayyorlanishi ta'minlanadi.

Maktab ta'limiga tayyorgarlik bolada faqatgina savod o'rganish ko'nikmalarining shakllanganligi bilan emas, balki uning bilish jarayonlari, nutqiy rivojlanishi, mustaqil fikrlashi, ijtimoiy muhitga moslashuvi hamda o'quv faoliyatiga bo'lgan motivatsiyasi bilan belgilanadi. Shu sababli, maktabga tayyorlov guruhi tarbiyalanuvchilarining maktab ta'limiga tayyorligini aniqlash jarayoni kompleks yondashuv asosida tashkil etilishi lozim.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Maktabgacha yoshdagi bolalarni maktab ta'limiga tayyorlash masalasi pedagogika, psixologiya va metodika fanlarida keng yoritilgan bo'lib, ushbu yo'nalishda olib borilgan ilmiy-tadqiqotlar bolaning har tomonlama rivojlanishini ta'minlashga qaratilgan. Xususan, maktabga tayyorgarlik tushunchasi ko'plab olimlar tomonidan nafaqat bilim, balki shaxsiy, psixologik va ijtimoiy yetuklik sifatida talqin etiladi.

Pedagog olimlar L.S. Vygotskiy, A.N. Leontyev, D.B. Elkonin o'z tadqiqotlarida maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishida o'yin faoliyatining yetakchi rolini asoslab berganlar. Ularning fikricha, bolaning maktab ta'limiga tayyorligi o'yin jarayonida shakllanadigan bilish jarayonlari, mustaqil fikrlash va ijtimoiy munosabatlar orqali namoyon bo'ladi.

Psixolog olim L.I. Bojovich maktabga tayyorgarlikni bolaning o'quv faoliyatiga bo'lgan ichki motivatsiyasi bilan bog'lab, maktabga psixologik tayyorgarlik yetarli darajada shakllanmagan bolalarda o'qish jarayonida qiyinchiliklar yuzaga kelishini ta'kidlagan. Shuningdek, N.I. Gutkina o'z ishlarida bolalarning maktabga tayyorligini aniqlashda diagnostik metodlardan foydalanish zarurligini asoslab bergan.

O'zbekistonlik pedagog va metodist olimlar tomonidan ham mazkur masala chuqur o'rganilgan. Maktabgacha ta'lim sohasiga oid metodik qo'llanmalar va o'quv dasturlarida maktabga tayyorlov guruhi tarbiyalanuvchilarining jismoniy, nutqiy, aqliy va ijtimoiy rivojlanish darajalarini aniqlash mezonlari belgilab berilgan. Xususan, "Ilk qadam" davlat o'quv dasturida bolalarning maktab ta'limiga tayyorligini aniqlashda kompleks yondashuv asosiy tamoyil sifatida ko'rsatib o'tilgan.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni hamda "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida"gi Qonunida maktabgacha ta'limning asosiy vazifalari sifatida bolaning maktab ta'limiga jismoniy, aqliy va psixologik jihatdan tayyorligini ta'minlash belgilangan. Ushbu me'yoriy-huquqiy hujjatlar maktabga tayyorlov guruhi faoliyatini tashkil etishda metodik asos bo'lib xizmat qiladi.

TADDIQOT METODOLOGIYASI

Maktabga tayyorlov guruhi tarbiyalanuvchilarining maktab ta'limiga tayyorligini aniqlash odatda quyidagi asosiy yo'nalishlar bo'yicha amalga oshiriladi:

1. Intellektual (bilish) tayyorgarlik: Tarbiyalanuvchilarning bilim va fikrlash darajasi aniqlanadi. Qo'llaniladigan metodikalar:

- Ranglar, shakllar, o'lchamlarni ajrata olishi;
- Sanash (1–10), taqqoslash;
- Mantiqiy fikrlash (ortiqcha predmetni topish, sabab–oqibatni tushunish);
- Diqqatni jamlay olish va eslab qolish.

Qo'llanilagan usullar: savol-javob, didaktik o'yinlar, rasm asosida hikoya tuzish.

2. Nutqiy tayyorgarlik: Tarbiyalanuvchilarning bilim va fikrlash darajasi aniqlanadi. Qo'llaniladigan metodikalar:

- So'z boyligi;
- Tovushlarni to'g'ri talaffuz qilishi;
- Gap tuza olishi;
- O'z fikrini ravon bayon qilishi.

Qo'llanilagan usullar: suhbat, ertak aytirish, rasm bo'yicha hikoya qildirish.



3. **Psixologik tayyorgarlik:** Tarbiyalanuvchilarning maktab ta'limiga psixologik tayyorgarlik darajasi aniqlanadi. Qo'llaniladigan metodikalar:
 - Maktabga bo'lgan qiziqish;
 - Topshiriqni oxirigacha bajarish;
 - O'qituvchini tinglash va ko'rsatmalarga amal qilish;
 - Emotsional barqarorlik.Qo'llanilagan usullar: kuzatuv, suhbat, rolli o'yinlar.
4. **Ijtimoiy tayyorgarlik:** Tarbiyalanuvchilarning ijtimoiy tayyorgarlik darajasi aniqlanadi. Qo'llaniladigan metodikalar:
 - Tengdoshlari bilan muloqot;
 - Jamoada ishlay olish;
 - Qoidalariga rioya qilish;
 - Mustaqillik darajasi.Qo'llanilagan usullar: guruhli o'yinlar, kundalik faoliyatni kuzatish.
5. **Jismoniy va mayda motorika tayyorgarligi:** Tarbiyalanuvchilarning jismoniy tayyorgarlik darajasi aniqlanadi. Qo'llaniladigan metodikalar:
 - Qalamni to'g'ri ushlashi;
 - Chiziq, shakl chiza olishi;
 - Qo'l barmoqlari harakati;
 - Umumiy jismoniy rivojlanish.Qo'llanilagan usullar: rasm chizish, mozaika, plastilin bilan ishlash.
6. **O'quv faoliyatiga tayyorgarlik:** Tarbiyalanuvchilarning o'quv faoliyatiga tayyorgarlik darajasi aniqlanadi. Qo'llaniladigan metodikalar:
 - Topshiriqni tushunishi;
 - Mustaqil ishlashi;
 - Daftarda ishlashga tayyorligi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Maktabga tayyorlov guruhi tarbiyalanuvchilarining maktab ta'limiga tayyorligini aniqlash jarayoni bolalar uchun qulay, tabiiy va o'yin faoliyatiga asoslangan muhitda olib borilishi, ularning ruhiy holatiga salbiy ta'sir ko'rsatmasligi zarur. Ushbu jarayon orqali bolalarning maktabga bo'lgan ijobiy munosabati shakllantiriladi hamda kelgusida ta'lim jarayoniga muvaffaqiyatli kirib borishi ta'minlanadi. Bunda baholash test shaklida emas, balki kuzatuv, o'yinlar, suhbatlar va amaliy mashg'ulotlar orqali olib borilishi tavsiya etiladi.

Diagnostika natijalari bolaning individual rivojlanish darajasini hisobga olgan holda tahlil qilinadi.

Mazkur diagnostika ishlari bolalarning individual imkoniyatlarini aniqlash, ularning kuchli va rivojlantirilishi lozim bo'lgan jihatlarini belgilash, shuningdek, maktab ta'limiga moslashuv jarayonini yengillashtirishga xizmat qiladi. Diagnostika natijalari asosida tarbiyachi va pedagoglar tomonidan individual yondashuv, rivojlantiruvchi mashg'ulotlar hamda korreksion ishlar rejalashtiriladi.

O'tkazilgan diagnostika natijalari shuni ko'rsatdiki, tarbiyalanuvchilarning aksariyat qismi maktab ta'limiga o'rtacha va yuqori darajada tayyor ekanligi aniqlandi. Xususan, intellektual tayyorgarlik bo'yicha bolalarning ko'pchiligi 1–10 gacha sanash, rang va shakllarni farqlash, taqqoslash kabi topshiriqlarni muvaffaqiyatli bajaradilar. Biroq ayrim bolalarda mantiqiy fikrlash va sabab–oqibat bog'lanishlarini tushunishda qisman qiyinchiliklar kuzatildi.

Nutqiy tayyorgarlik tahlili natijalariga ko'ra, bolalarning katta qismi gap tuzib erkin fikr bildirish, rasm asosida hikoya tuzishi bilan ajralib turdi. Shu bilan birga, ayrim tarbiyalanuvchilarda tovushlarni noto'g'ri talaffuz qilish, so'z boyligining yetarli emasligi holatlari aniqlandi. Bu esa nutqni rivojlantirishga qaratilgan mashg'ulotlarni yanada kuchaytirish zarurligini ko'rsatadi.



Psixologik tayyorgarlik yo'nalishida bolalarning maktabga bo'lgan qiziqishi va o'quv faoliyatiga munosabati o'rganildi. Natijalar shuni ko'rsatdiki, ko'pchilik bolalar topshiriqlarni oxirigacha bajarishga harakat qiladi, ko'rsatmalarga amal qiladi. Ayrim bolalarda esa diqqatni uzoq vaqt jamlay olmaslik va tez charchash holatlari kuzatildi.

Ijtimoiy tayyorgarlik tahlilida tarbiyalanuvchilarning tengdoshlari bilan muloqoti, jamoada ishlash ko'nikmalari baholandi. Natijalarga ko'ra, bolalarning aksariyati guruh qoidalariga amal qilishi, o'yinlarda faol ishtirok etishi aniqlandi. Biroq ayrim hollarda nizoli vaziyatlarga kirishish va emotsional boshqaruvning yetarli emasligi holatlari kuzatildi.

Mayda motorika rivojlanishi bo'yicha o'tkazilgan topshiriqlar natijalari bolalarning ko'pchiligi qalamni to'g'ri ushlashi, chiziq va shakllarni chiza olishini ko'rsatdi. Shu bilan birga, ayrim bolalarda qo'l barmoqlari harakati yetarli darajada rivojlanmaganligi sababli yozuvga tayyorgarlikni kuchaytirish zarurligi aniqlandi.

Umumiy tahlil natijalariga ko'ra:

- tarbiyalanuvchilarning ko'pchiligi maktab ta'limiga yetarli darajada tayyor;
- ayrim bolalarda nutqiy rivojlanish, diqqatni jamlash va mayda motorika yo'nalishlarida qo'shimcha rivojlantiruvchi ishlar talab etiladi;
- diagnostika natijalari asosida individual yondashuv va korreksion mashg'ulotlarni tashkil etish maqsadga muvofiq.

Shunday qilib, olib borilgan diagnostika ishlari maktabga tayyorlov guruhi tarbiyalanuvchilarining maktab ta'limiga tayyorlik darajasini aniqlashda muhim ahamiyat kasb etdi hamda keyingi ta'lim jarayonini rejalashtirish uchun zarur amaliy xulosalar chiqarishga imkon berdi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Olib borilgan diagnostika va tahlil ishlari maktabga tayyorlov guruhi tarbiyalanuvchilarining maktab ta'limiga tayyorlik darajasini aniqlash muhim pedagogik jarayon ekanligini tasdiqladi. Tadqiqot jarayonida bolalarning intellektual, nutqiy, psixologik, ijtimoiy hamda jismoniy rivojlanish darajalari kompleks yondashuv asosida o'rganildi.

Natijalarga ko'ra, tarbiyalanuvchilarning asosiy qismi maktab ta'limiga yetarli darajada tayyor ekanligi aniqlandi. Shu bilan birga, ayrim bolalarda nutqiy rivojlanish, diqqatni jamlash, emotsional barqarorlik va mayda motorika ko'nikmalarini rivojlantirish zarurligi aniqlandi. Bu holat maktabgacha ta'lim jarayonida individual yondashuv va maqsadli metodik ishlarni tashkil etish muhimligini ko'rsatadi.

Diagnostika ishlari bolalarning yosh va individual xususiyatlarini inobatga olgan holda, o'yin faoliyatiga asoslangan, qulay va xavfsiz muhitda tashkil etilgani ijobiy natijalarga erishishda muhim omil bo'ldi. Olingan natijalar ta'lim-tarbiya jarayonini takomillashtirish hamda bolalarning maktab bosqichiga muvaffaqiyatli moslashuvini ta'minlash uchun metodik asos bo'lib xizmat qiladi.

Olingan xulosa va natijalarga asoslanib, quyidagi takliflarni bildirish mumkin:

1. Nutqiy rivojlanishni qo'llab-quvvatlash

- Har kuni 5–10 daqiqalik suhbatlar tashkil etish;
- Rasm asosida hikoya tuzish, ertakni davom ettirish mashqlaridan foydalanish;
- Tovushlarni to'g'ri talaffuz qilishga qaratilgan logopedik mashqlarni joriy etish.

2. Bilish jarayonlarini rivojlantirish

- Mantiqiy fikrlashni rivojlantiruvchi didaktik o'yinlar ("Ortiqchasini top", "Taqqosla")ni muntazam o'tkazish;
- Sanash va guruhlashga oid mashqlarni kundalik mashg'ulotlarga kiritish;
- Kuzatuv va tajriba elementlaridan foydalanish.

3. Psixologik tayyorgarlikni kuchaytirish

- O'quv faoliyatiga ijobiy munosabatni shakllantirish uchun rag'batlantirish usullarini qo'llash;
- Diqqatni jamlashga qaratilgan qisqa va mazmunli topshiriqlar berish;
- Rolli va syujetli o'yinlar orqali bolalarning emotsional barqarorligini rivojlantirish.

4. Ijtimoiy moslashuvni rivojlantirish

- Jamoa bilan ishlashni rivojlantiruvchi guruhli o'yinlarni tashkil etish;
- Muloqot madaniyatini shakllantirishga qaratilgan mashg'ulotlar o'tkazish;
- Qoidalariga amal qilishni o'rgatuvchi o'yinlardan foydalanish.

5. Mayda motorikani rivojlantirish

- Qalam bilan ishlash, chiziq va shakl chizish mashqlarini ko'paytirish;
- Mozaika, konstruktor, plastilin bilan ishlashni tizimli yo'lga qo'yish;
- Qo'l barmoqlari uchun barmoq gimnastikasini joriy etish.

6. Individual yondashuvni ta'minlash

- Diagnostika natijalari asosida har bir bola uchun individual rivojlantirish rejalarini tuzish;
- Qo'shimcha yordamga muhtoj bolalar bilan alohida ishlash.

7. Ota-onalar bilan hamkorlik

- Ota-onalar uchun metodik tavsiyalar va maslahatlar berish;
- Uy sharoitida bajariladigan rivojlantiruvchi mashqlarni tavsiya etish;
- Doimiy aloqa va fikr almashinuvni yo'lga qo'yish.

Maktabga tayyorlov guruhi tarbiyalanuvchilarini maktab ta'limiga tayyorligini aniqlash va rivojlantirish jara-yonini metodik jihatdan to'g'ri tashkil etish bolalarning kelgusidagi o'quv faoliyatida muvaffaqiyatga erishishida muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu metodik tavsiyalar maktabgacha ta'lim muassasasida ta'lim-tarbiya jara-yonini samarali tashkil etishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Akramova D. Bo'lajak pedagog-psixologlarning maktabgacha ta'lim tizimidagi faoliyati // Science and Innovation. – 2022. – T. 1, № B8. – B. 322–326.
2. Акрамова Д. Э. Совершенствование технологий развития механизмов педагогической и психологической гибкости у студентов как проблема современности // Образование, наука и инновационные идеи в мире. – 2023. – Т. 13, № 8. – С. 19–23.
3. Akramova D. Oliy ta'lim muassasalari talabalarida pedagogik-psixologik moslashuvchanlikning mazmun-mohiyati // Science and Innovation. – 2022. – T. 1, № B8. – B. 2150–2153.
4. Akramova D. E. qizi, Suvonqulova M. D. Rivojlantiruvchi markazlarda bolalarni maktabga tayyorlash va milliy qadriyatlar namunalaridan foydalanishning afzalligi // International Conferences. – 2023. – T. 1, № 2. – B. 393–396.
5. Akramova D. E. qizi, Azimova X. D. Maktabgacha ta'lim yo'nalishi talabalarida ijodiy tafakkurni rivojlantirish metodikasi // International Conferences. – 2023. – T. 1, № 2. – B. 382–385.
6. Ergashevna A. D. Tarbiyalanuvchilarda moslashuvchanlik mexanizmlarini takomillashtirish dolzarb muammo sifatida // Journal of New Century Innovations. – 2023. – T. 23, № 2. – B. 169–173.
7. Акрамова Д. Э., Бобомуродова О. Б. Тарбия методлари ва усуллари ҳақида тушунча // International Conferences. – 2023. – T. 1, № 2. – B. 352–354.
8. Акрамова Д. Э. қизи, Давронова Ж. С. Тарбия тизими ва унинг таркибий қисмлари // International Conferences. – 2023. – T. 1, № 2. – B. 358–361.
9. Akramova D. Activities of Future Teachers-Psychologists in the System of Preschool Education // Science and Innovation. – 2022. – Vol. 1, № 8. – P. 322–326.
10. Ergashevna A. D. Theoretical Foundations for the Development of Socialization in Schoolchildren of the Preparatory Group. – 2025. – SHOKH Library.
11. Акрамова Д. Э., Йўлдошева Н. Тарбия методлари мажмуи // International Conferences. – 2023. – T. 1, № 2. – B. 362–364.
12. Акрамова Д. Э. қизи, Бозорбоева Д. А. Жамоа – тарбия объекти ва субъекти сифатида // International Conferences. – 2023. – T. 1, № 2. – B. 355–357.
13. Акрамова Д. Э., Шералиева Н. У. Шахсининг ўз-ўзини тарбиялаш методлари // International Conferences. – 2023. – T. 1, № 2. – B. 378–381.
14. Ergashevna A. D. Maktabga tayyorlov guruhi tarbiyalanuvchilarini maktab ta'limiga ijtimoiy moslashuvchanligini ta'minlovchi texnologiyalar // Ustozlar uchun. – 2025. – T. 73, № 1. – B. 296–299.
15. Ibraimov X., Akramova D. Didactic Characteristics of Communicative Training in English Language Teaching // Science and Innovation. – 2023. – T. 2, № B11. – P. 357–361.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №1(2)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.